

BOSHLANG'ICH SINFLARDA LUG'AT USTIDA ISHLASH METODIKASI

Xasanova Maftuna

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada lug'at va leksikografiya tushunchalarining nazariy asoslari yoritilib, ularning boshlang'ich ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ensiklopedik va lisoniy lug'atlarning ta'limiy imkoniyatlari ochib berilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirish hamda nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi o'рни asoslab beriladi. Shuningdek, lug'at ustida ishlash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlar va metodik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: lug'at, leksikografiya, ensiklopedik lug'at, lisoniy lug'at, boshlang'ich ta'lim, lug'at ustida ishlash metodikasi, nutqiy kompetensiya, so'z boyligi

МЕТОДОЛОГИЯ РАБОТЫ НАД СЛОВАРНЫМ ЗАПАСОМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы понятий словаря и лексикографии, а также анализируется их значение в системе начального образования. Раскрываются дидактические возможности энциклопедических и лингвистических словарей в формировании словарного запаса и речевой компетенции учащихся начальных классов. Кроме того, предлагаются эффективные педагогические подходы и методические рекомендации, направленные на совершенствование методики работы со словарём в учебном процессе.

Ключевые слова: словарь, лексикография, энциклопедический словарь, лингвистический словарь, начальное образование, методика работы со словарём, речевая компетенция, словарный запас.

METHODOLOGY FOR WORKING ON VOCABULARY IN PRIMARY GRADES

Abstract. This article examines the theoretical foundations of the concepts of dictionary and lexicography and analyzes their significance in the system of primary education. The educational potential of encyclopedic and linguistic dictionaries in developing vocabulary and forming communicative competence of primary school pupils is revealed. In addition, effective pedagogical approaches and methodological recommendations aimed at improving dictionary-based instruction in the teaching process are proposed.

Keywords: dictionary, lexicography, encyclopedic dictionary, linguistic dictionary, primary education, dictionary work methodology, communicative competence, vocabulary.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va zamon talablariga moslash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir davlatning

tarraqqiyoti eng avvalo, uning ta'lim sifatiga bog'liq ekanligi barchamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi islohotlari, xususan, barkamol avlodni tarbiyalash strategiyasi doirasida ona tili darslari orqali o'quvchilarda boy va ravon nutq shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilar nutqini shakllantirish va yanada rivojlantirish avvalo, oiladan, maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlansada, eng asosiy jarayon boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish va so'z boyligini oshirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Lug'at boyligi – nutqning asosi bo'lib, u o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, mantiqiy ifoda etish ko'nikmasini va kommunikativ malakalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinflarda (1-4-sinflar) lug'at ustida ishlash ona tili o'qitish metodikasining ajralmas qismi sifatida o'quvchilarning passiv (tushunadigan) va aktiv (qo'llaydigan) lug'atini boyitishga qaratilgan. Bu jarayon nafaqat yangi so'zlarni o'zlashtirish, balki ularning ma'nosini chuqur tushunish, to'g'ri ishlatish va nutqda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Leksikologiya fanining yutuqlari asosida lug'at ishi sinonimlar, antonimlar, ko'p ma'noli so'zlar va frazeologizmlar bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi (leksik boyligi) o'zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisasidir. Undagi so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbai ham har xildir. Umuman, har qanday til o'z lug'at tarkibi va grammatik ko'rinishiga ega bo'ladi. Lekin xalqlar o'rtasidagi uzoq, tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham, shubhasiz, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada bir tilga xos fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi bir tilga o'tib, o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir etish ayniqsa leksikada kuchli bo'ladi. Leksika (yunoncha *lexis* – so'zga oid, lug'aviy) til tarkibidagi barcha so'zlar va turg'un birikmalar majmuini, ya'ni tilning lug'at boyligini ifodalaydi. Leksika til tizimining eng faol va dinamik qatlami bo'lib, u ma'lum qonuniyatlarni asosida shakllangan murakkab va izchil tizimdan iboratdir. Tilning lug'at tarkibi jamiyat hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va

madaniy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda doimiy ravishda yangilanib boradi. Leksikadagi o'zgarishlar, avvalo, yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishi, ayrim birliklarning eskirishi yoki iste'moldan chiqib ketishi, shuningdek mavjud so'zlarning ma'no doirasining kengayishi va yangi semantik qirralar kasb etishi orqali namoyon bo'ladi. Ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va madaniy aloqalarning kengayishi lug'at tarkibining boyishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. XX asrda o'zbek tili leksikasi ham jadal rivojlanib, baynalmilal so'zlar va ilmiy terminlar bilan sezilarli darajada boyidi.

O'zbek tili leksikasi tarkibiy jihatdan o'z qatlam va o'zlashma qatlamdan iborat. O'z qatlamni umumturkiy so'zlar hamda ular asosida yasalgan milliy leksik birliklar tashkil etsa, o'zlashma qatlam tarkibiga forsha, arabcha va ruscha-baynalmilal kelib chiqishga ega bo'lgan so'zlar kiradi. Ushbu qatlamlar o'zaro uyg'unlashgan holda zamonaviy o'zbek adabiy tilining lug'at boyligini shakllantiradi.

"Leksika" atamasi tor ma'noda ham qo'llanib, muayyan muallif, asar yoki tarixiy davrga xos so'z boyligini anglatishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy leksikasi yoki "O'tgan kunlar" romani leksikasi kabi tushunchalar muayyan adabiy manbaning til xususiyatlarini tavsiflashga xizmat qiladi. O'zbek xalqi xam o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lgan va bu xalqlarning tili o'zbek tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini qoldirgan xususan, boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar o'zlashganini shu ta'sir bilan izohlash mumkin. Natijada, o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan birga o'zlashgan leksik qatlam ham yuzaga kelgan.

Tilshunoslik fanida lug'at tushunchasi muayyan til yoki uning ma'lum bir qatlamida mavjud bo'lgan so'zlar majmuini, ya'ni tilning leksik tarkibini ifodalaydi. Shu bilan birga, lug'at so'zlarning muayyan tartibda joylashtirilib, ularning ma'nosi, kelib chiqishi, talaffuzi, yozilishi, uslubiy xususiyatlari hamda boshqa tillarga tarjimasi haqida ma'lumot beruvchi ilmiy-amaliy manba sifatida ham e'tirof etiladi. Lug'atlar tilning boyligini saqlash, me'yorlashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Leksikografiya esa tilshunoslikning lug'atlar tuzish, ularni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi sohasi hisoblanadi. Leksikografiya

lug'atlarning tuzilishi, turlari, lug'at maqolalarini berish usullari hamda ularning ijtimoiy va ta'limiy vazifalarini o'rganadi. Ushbu soha til taraqqiyoti jarayonida yuzaga keladigan yangi so'zlar va tushunchalarni lug'atlarda aks ettirish orqali jamiyatning madaniy va ilmiy rivojiga xizmat qiladi. Leksikografiya (yunoncha *lexikos* – so'zga oid va *graphein* – yozmoq) tilshunoslik fanining lug'atlar tuzishning nazariy asoslari hamda ularni amaliy jihatdan yaratish jarayonlarini o'rganadigan bo'limidir. Leksikografiya til birliklarini tizimli tarzda qayd etish, tavsiflash va me'yorlashtirish orqali jamiyatning til madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. U nafaqat tilning hozirgi holatini aks ettiradi, balki muayyan davr jamiyatining ilmiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti haqida ham muhim ma'lumotlarni jamlaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur nazariy qarashlar boshlang'ich sinflarda lug'at ustida ishlash metodikasini asoslashda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarga so'zlarning qatlamlari, ishlatilish doirasi va nutqiy xususiyatlarini yoshga mos, soddalashtirilgan holda tushuntirish ularning so'z boyligini boyitish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda til birliklaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini kengaytirish va nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyot eng ishonchli va samarali manbalardan biri hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, G'afur G'ulom, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Zulfiya, Uyg'un, Abdulla Qahhor, Po'lat Mo'min, Qudrat Muhammadiy, Shukrullo Sa'dulla, Zokir Diyor kabi atoqli adiblarning asarlari bilan tanishadilar. Ushbu badiiy matnlar orqali o'quvchilar o'zbek tilining boyligi, ifodaviy imkoniyatlari va estetik xususiyatlarini yuksak badiiy obrazlar asosida ongli o'zlashtiradilar.

O'qish darslarida badiiy asarlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar lug'ati muayyan mavzularga oid so'zlar hisobiga tizimli ravishda boyiydi. Xususan, axloqiy-estetik tushunchalarni ifodalovchi *mehribon*, *shirinso'z*, *yoqimtoy*, *haqqoniy*, *botir*, *mard*, *jasur*, *mehnatsevar* kabi so'zlarning o'zlashtirilishi o'quvchilarning nafaqat lug'at boyligini, balki shaxsiy fazilatlarini va ijtimoiy qarashlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Matn ustida olib boriladigan izchil ishlar davomida o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda qo'llaniladigan birliklar hamda

ayrim frazeologik birikmalar bilan tanishib, ularni nutqda to'g'ri qo'llash malakasini hosil qiladilar.

O'quvchilarda mustaqil o'qish ko'nikmalari shakllangan sari, ularning lug'atiga kitob, gazeta va jurnal materiallari tobora kuchli ta'sir ko'rsata boshlaydi. Shu sababli sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini tizimli tashkil etish va ularga metodik rahbarlik qilish o'quvchilar lug'atini boyitish hamda nutqini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Mustaqil o'qish jarayonida o'quvchilar yangi so'zlarni kontekstda o'zlashtiradi, ularning ma'nosini mustaqil aniqlashga o'rganadi va bu esa lug'atning faol qatlamini kengaytiradi.

Grammatika va imlo darslari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va tartibga solishda muhim metodik ahamiyatga ega. Maxsus mashqlar orqali o'quvchilar predmet, belgi, harakat, miqdor va tartibni ifodalovchi so'zlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida lug'at birliklari tizimlashtiriladi, so'z tarkibi, so'z yasalishi va so'zlarning o'zgarishini tahlil qilish orqali o'rganilgan so'zlarga aniqlik kiritiladi. Natijada o'quvchilar o'zlashtirgan leksik birliklardan og'zaki va yozma nutqda faol foydalanishga intiladilar, bu esa lug'atning faollashuviga olib keladi.

Shuningdek, lug'aviy-mantiqiy mashqlar o'quvchilar lug'atini boyitish va tizimlashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Bunday mashqlar orqali so'zlar o'zaro ma'noviy bog'lanishda o'rganiladi, o'quvchilarning tafakkuri faollashadi va nutqiy kompetensiyasi mustahkamlanadi. Umuman olganda, boshlang'ich ta'lim jarayonida badiiy asarlar, mustaqil o'qish faoliyati hamda tilga oid fanlar doirasidagi mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish o'quvchilar lug'atini boyitish va nutqini izchil rivojlantirishning eng muhim metodik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning lug'atini boyitish uchun ona tili darslarida ularga sinonim va antonimlar haqida maxsus nazariy ta'riflar berilmaydi, balki bu tushunchalar amaliy mashqlar orqali bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ularning til birliklarini sezgi va tajriba asosida anglab yetishiga imkon yaratadi, lug'atini boyitadi. Sinonimlar bilan ishlash elementlari 1-sinfdan boshlab joriy etiladi. Dastlab

o'quvchilar berilgan so'zga ma'nodosh bo'lgan boshqa so'zni topish, bir fikrni boshqacha ifodalash mumkinligini tushunishga o'rgatiladi. 2–3-sinflarda esa o'quvchilardan berilgan so'zga ikki-uchta sinonim topish, ularning nutqda qo'llanishiga e'tibor qaratish talab etiladi. Bu jarayon o'quvchilar lug'atini boyitish bilan birga, nutqning rang-barang va ifodali bo'lishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda ma'nodosh so'zlar bilan ishlashda quyidagi metodik mashqlar tizimi samarali hisoblanadi.

Birinchidan, ma'nodosh so'zlarni guruhlash mashqlari qo'llaniladi. Bunda bir so'z turkumiga mansub ikki sinonimik qatordagi so'zlar orasiga boshqa ma'nodagi so'zlar aralashtirib beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlarni ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratadilar. Masalan, *vatan*, *diyor*, *mamlakat*, *yurt* va *maqsad*, *niyat*, *murod* so'zlari ajratilib, ularning sinonimik qatorlari aniqlanadi. Bu mashq o'quvchilarda ma'noviy farqlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Ikkinchidan, berilgan so'zga sinonim tanlash mashqlari bajariladi. Masalan, otlar mavzusida *osmon*, sifatlar mavzusida *mazali*, fe'llar mavzusida *ko'nikmoq* so'zlari berilib, o'quvchilar ularning sinonimlarini topadilar (*osmon* – *samo*, *falak*; *mazali* – *lazzatli*, *totli*; *ko'nikmoq* – *o'rganmoq*, *odatlanmoq*). Bu mashq so'z turkumlarini mustahkamlash bilan birga, lug'at boyligini oshiradi.

Uchinchidan, tushirib qoldirilgan sinonimlarni o'z o'rniga qo'yib matnni ko'chirish mashqlari tashkil etiladi. Bunda o'quvchilarga tekshirish uchun sinonimlar ro'yxati beriladi. O'quvchilar matn mazmuniga mos so'zni tanlab qo'yadilar va sinonimlarning qo'llanishdagi nozik farqlarini tushuntiradilar.

To'rtinchidan, gap mazmuniga mos sinonimni tanlash mashqlari qo'llaniladi. Masalan, qavs ichida berilgan sinonimlardan mazmun jihatidan eng mosini tanlab gapni ko'chirish topshiriladi: *Daryo suvini (bahor, ko'klam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar*. Bu mashqlar o'quvchilarda kontekstga mos so'z tanlash malakasini rivojlantiradi.

Beshinchidan, sinonimlar qatori asosida didaktik material tuzish va u bilan ishlash mashqlari o'tkaziladi. Masalan, bir nechta sinonimik qatorlar aralashtirib katakchalarga joylashtiriladi. O'qituvchi bir so'zni aytadi (*chiroyli*), o'quvchilar esa

shu soʻzga yaqin maʼnoli birliklarni topadilar (*goʻzal, dilbar, husndor, sohibjamol*) va ular ishtirokida soʻz birikmalari tuzadilar. Bu mashq nutqning obrazlilikini oshiradi.

Boshlangʻich sinflarda antonimlar (zid maʼnoli soʻzlar) bilan ishlash ham lugʻatni boyitishda muhim oʻrin tutadi. Bu jarayonda, avvalo, berilgan soʻzga antonim tanlash mashqlari bajariladi. Masalan, *azob – rohat, doʻstlik – dushmanlik, yoshlik – qarilik, kasal – sogʻ* kabi juftliklar tuziladi. Keyinchalik oʻquvchilar antonimlarni qatnashtirib gaplar tuzadilar hamda tayyor gaplarda tushirib qoldirilgan antonimlarni mazmuniga mos holda toʻldiradilar. Bu jarayonda oʻquvchilar soʻzlarni jufti bilan oson eslab qolishadi. Sinonim va antonimlar bilan izchil olib borilgan mashqlar oʻquvchilar lugʻatini boyitish bilan birga, ularning fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etish koʻnikmalarini shakllantiradi. Natijada boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqiy kompetensiyasi bosqichma-bosqich rivojlanib, adabiy til meʼyorlariga mos, boy va mazmunli nutq vujudga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, boshlangʻich taʼlim jarayonida lugʻat ustida ishlash oʻquvchilarning nutqiy rivojlanishi va til kompetensiyasini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Lugʻat va leksikografiyaga oid nazariy qarashlar, leksikaning tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek sinonim va antonimlar bilan ishlashga asoslangan amaliy mashqlar tizimi boshlangʻich sinf oʻquvchilarining soʻz boyligini ongli va izchil kengaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlangʻich sinflarda sinonim va antonimlar haqidagi tushunchalarni nazariy taʼriflarsiz, amaliy mashqlar asosida shakllantirish oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga mos boʻlib, ularning til birliklarini sezgi va tajriba asosida anglab yetishiga imkon yaratadi. Maʼnodosh va zid maʼnoli soʻzlar bilan ishlashga yoʻnaltirilgan mashqlar tizimi oʻquvchilarning fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etish koʻnikmalarini rivojlantiradi hamda adabiy til meʼyorlariga rioya qilish malakasini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich taʼlimda lugʻat ustida ishlash metodikasini ilmiy asosda tashkil etish, badiiy matnlar, lugʻaviy-mantiqiy mashqlar va leksik-semantik munosabatlarni oʻrgatishga yoʻnaltirilgan faoliyatni tizimli yoʻlga qoʻyish

o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali natija beradi. Bu esa kelgusida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S. Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun darslik Toshkent 2019
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharafjon Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent "Noshir" nashriyoti 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik- Toshkent. Fan, 2007. – B. 255.
4. Matchonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. – 2021-yil.
5. Mehriddinov Z. Isamuhammedov O. "Boshlang'ich ta'lim saboqlari" Toshkent 2014.
6. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.:O'qituvchi, 2002.